

KITOB ZO'R SOVG'AMI?

Bir kuni sinfdosh do'stim Samandarning tug'ilgan kuniga kitob sotib oldim. Tug'ilgan kunga borar ekanman, sovg'am unga yoqarmikan, deb rosa o'yladim. Chunki do'stlarim gullar, koptok, kemacha deysizmi, antiqa sovg'alar olishgandi. Do'stim aqlli bola-da, barchaning yonida: «Kitob eng zo'r sovg'a, rahmat senga», deb meni xursand qildi. Siz do'stlaringizga kitob sovg'a qilasizmi? Zero, «Kitob bilim bulog'i, o'quvchining o'rtog'i» ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz.

Furqat KARIMOV,
Sirdaryo viloyati,
Boyovut tumani

YUTUQLAR GAROVI EKAN

Biz o'quvchilarni doim, kim bo'lsam ekan, degan savol o'ylantiradi, to'g'rimi? Maktabimizda o'tkazilgan davra suhbatiga o'qituvchilarning barcha kasb egalarini taklif etishdi. Mehmonlar o'z kasblari haqida gapirib berishdi. Shifokor opamizning gaplarini eshitib, biz qizlar bu kasbga qiziqib qoldik. Shuningdek, mahallamiz qariyalari ham yoshlikda olgan bilimlari, kasblari erishgan yutuqlarining garovi bo'lgani haqida so'zlab berdilar. Demak, insonning kasbi, mehnati ulug'lar ekan.

Mukarram OTAMURODOVA,
Buxoro viloyati, Romitan
tumanidagi 23-ixtisoslashgan
maktabning 9-sinf
o'quvchisi

DAVLAT TILINI PUXTA O'RGANIB...

O'zbek tiliga davlat maqomi berilganiga 19 yil bo'libdi. Shu munosabat bilan tumanimizdagi 248-maktabda «Ona tilim-sen ruhimning qanoti» nomli tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirga Mirzo Ulug'bek tumani hokimiyati, o'quvchilar ijodiyot markazi va albatta «Kamolot» YOIH tuman bo'limlari bosh bo'lishdi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ul opamiz Halima Jumaniyozova ta'kidlaganlariday, bu bayram biz o'quvchilarga davlat tilini puxta o'rganib, uni qadrlashni o'rgatadi. Zero, o'zbek tili uzoq o'tmishga ega, boy va betakror tildir, bizning tilimizdir.

Malika DONIYEVA,
Toshkent shahar, Mirzo
Ulug'bek tumani

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

Tong

YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqarib boshlagan

**2008-yil
20-oktabr
N:42
(66687)**

OBUNA – 2009

**Eshitmadim demanglar!
Eshitmaganlar armonda qolmanglar!**

Birinchilarda Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi maktablar va maktabgacha tarbiya muassasalariga!

Mamlakatimizning porloq kelajagini yaratishga qat'iy bel bog'lagan litsey va kollej talabalariga!

Eng sevimli nashrlaringiz «Tong yulduzi», «Klass» gazetalari, hamda «Gulxan» va «G'uncha» jurnallariga 2009-yil uchun obunani eng ko'p tashkil qilgan quyidagilarga noshir «O'zbekiston» nashriyot matbaa ijodiy uyi tomonidan qimmatbaho sovrinlar ajratildi. Ular quyidagicha:

1. «Eng namunali Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahri va viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi»ga 3 ta sovrin: 1 dona televizor, 2 dona magnitofon.
2. «Eng namunali tuman xalq ta'limi bo'limi»ga 3 ta sovrin: 1 dona televizor, 2 dona magnitofon.
3. «Eng namunali maktab, litsey, kollej»ga 6 ta sovrin: 3 dona televizor, 3 dona magnitofon.

Bu mukofotlar «Obuna – 2009» mavsumi yakuniga ko'ra noshir va gazeta-jurnallar tahririyatlari komissiyasi tomonidan 1-3 o'rinlarga qarab taqsimlanadi va sovrindorlarga tantanali ravishda topshiriladi. Bundan tashqari, komissiya nashrlarning eng ibratli tashviqotchilarini 13 ta magnitofon bilan taqdirlashni rejalashtirgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar, tumanlar xalq ta'limi bo'limlarini, maktablar, litsey va kollejlarni jamoalarini «Tong yulduzi», «Klass», «Gulxan»,

«G'uncha» gazeta-jurnallari uchun «Obuna – 2009» mavsumini namunali tashkil etishga da'vat etamiz.

Maktablar va eng faol tashkilotchilar Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalarining tavsiyasiga binoan aniqlanadi. Natijalar obunani qabul qilib olgan aloqa bo'limi tomonidan muhr bilan tasdiqlanishi shart. G'oliblar yil so'ngida Respublika komissiyasi tomonidan obuna yakuniga ko'ra aniqlanadi va kelgusi yilda gazetamizning ilk sonida e'lon qilinadi.

«Obuna – 2009» mavsumini namunali tashkil qiling va sovrindorlar safidan o'rin oling!

**Nashr
ko'rsatgichimiz:**

198

Tongning nurafshon suratini,
Olamning beg'uborligini,
Niyatingiz amalga oshirishini,
Gullar maskanida kezishni,

«Tong yulduzi»ga hamroh bo'ling!

Yulduzlar olamiga sayr qilishni,
Lolazorda kezib yurishni,
Dunyoni beg'ubor ko'rishni,
Umrning mazmunli o'tishini,
Zavq dilingizga shodlik baxsh etishini,
Istaysizmi?



**HAMMA, HAMMA,
HAMMAGA!!!**

O'RNAK OLASIZMI?

BILIMIMIZNI
SINADIK

Biz tarix faniga juda qiziqamiz. Shuning uchun sinflararo musobaqa o'tkazib, ushbu fandan olgan bilimlarimizni sinab ko'rdik. «Tarixga intiluvchilar» nomli guruhimiz g'olib bo'ldi. Ayniqsa, guruh sardori Muxlisa Anvarova ijodkorligi, topqirligi bilan barchamizning havasimizni keltirdi.

Go'zal SIDIQOVA,
6-«D» sinf o'quvchisi

BOLALIK

Bolalikning osmonida
Qushcha bo'lib uchaman.
Beg'uborlik dostonida,
Men ko'klarni quchaman.
Bu ajib bolalik nega tez o'tar?!
Shoshadi, toshadi, o'tar va ketar!
Qancha-qancha kattalar ham
Qachondir bola bo'lgan.
Sho'xlik qilib, erkanlab,
Shunday ulg'ayib qolgan.
Bu ajib bolalik nega tez o'tar?!
Shoshadi, toshadi, o'tar va ketar!

Mayli, zamon o'zgarsin,
Bolalik mangu qolsin.
Bolalarning ovozi,
Dunyo bo'ylab yangrasin.
Bu ajib bolalik nega tez o'tar?!
Shoshadi, toshadi, o'tar va ketar!
Ey, bolajon, davron
Bolalik oftobida.
So'ng, bir umr mag'rur tur,
Murg'ak qalb kitobida.
Bu ajib bolalik nega tez o'tar?!
Shoshadi, toshadi, uchar va ketar!

Nodira ABDURAHIMOVA,
9-«D» sinf o'quvchisi



FAOLMIZ, FAOL

Tumanimizda tashkil etilgan «Yashil patrul» guruhiga bizning maktabdan ham bir qancha o'quvchilar a'zo bo'lishgan.

Ular ancha-muncha ishlarni amalga oshirib qo'yishdi, desam ishonasizmi?

Mening maktabdoshlarim shunday: hech narsadan qolmay faol bo'lib yurishadi.

Kel, do'stim, bizga qo'shil, Biz «Yashil patrulchilar»,
Kelajak qo'limizda. Nur yog'ar yo'limizda.

Ilyos UBAYDULLAYEV, 6-«A» sinf o'quvchisi

BIZNING YANGI KLUB

Maktabimizda bu yil «Iste'dodli yoshlar» klubi ish boshladi. Unga she'r, qatralar yozadigan yuqori sinf o'quvchilari a'zo bo'lishmoqda. Men ham shu klubning a'zosi sifatida «Yangi avlod» ko'rik-tanlovida ishtirok etmoqchiman. Bizga Nodira opa Abdurahimova boshchilik qilmoqdalar. Ulardan mazmunli va to'g'ri yozishni o'rganib, turli ko'rik-tanlovlarda qatnashmoqchimiz.

Mohina MUZAFFAROVA, 6-«D» sinf o'quvchisi

QIZIQARLI OYLIKLAR

Sizning maktabingizda ham fan oyliklari o'tkazilayotgan bo'lsa kerak?! Oktabr oyi «Milliy istiqlol g'oyasi» va «Vatan tuyg'usi» fanlariga bag'ishlandi. Biz ushbu oylikka bag'ishlab turli devoriy gazetalar tayyorlamoqdamiz. O'qituvchimiz Marhabo opa Qurbonova esa bizga bosh bo'lmoqdalar. Eng quvonarlisi, biz «Yoshlar ijodiyot uyi»ga sayohat ham uyushtirdik.

Muxlisa ANVAROVA,
6-«K» sinf o'quvchisi

KICHIK AKADEMIYA

Biz turli to'garaklarni yaxshi ko'ramiz. Ushbu o'quv yilida maktabimiz rahbari Hotam aka Bobojonov tashabbuslari bilan «Kichik akademiya» to'garagi ish boshladi. Maqsad, ijodkor o'quvchilarni ko'paytirish bo'lib, ona tili o'qituvchimiz Barno opa Rajabova bizning yozgan qatra, she'rlarimizni ko'rib beradilar. Biz mazmunli yozishni o'rganib olib, ijodiy mashqlarimizni «Tong yulduzi»ga yubormoqchimiz.


Xurshida SULTONOVA,
Xorazm viloyati, Hazorasp
tumanidagi 2-maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi

BILIMDON
BOLALARMIZ

Men Abduaziz Matyoqubovman. Yoshim o'nda. Ko'p narsalarni bilishga qiziqaman. Ayniqsa, jumboqlarni yechish, mantiqiy savollarga javob topish jon-u dilim.

Yangi o'quv yilidan Yunusobod tuman O'quvchilar Ijodiyoti Markazi qoshidagi «Bilimdonlar» klubiga a'zo bo'ldim. To'garak rahbarimiz Aziza Yo'ldosheva turli mavzularda jumboqlar, mantiqiy savollar, boshqotirmalar, masalalar orqali dars o'tadilar.

To'garakka qatnab, juda ko'p yangiliklardan boxabar bo'lyapman. Ular haqida do'stlaringma, sinfdoshlarimga so'zlab beryapman. Olgan bilimlarim o'qishimda ham, hayotda ham juda asqotyapti.



Klub mashg'ulotlarimiz ana shunday
qiziqarli bahs-munozaralarga boy o'tadi.

ALIFBONI BILASIZMI?

Ha, albatta, deyishga shoshilmang. Chunki o'ylab qarasangiz, 1-sinfda yod olgan alifboni hozir to'liq eslay olmaysiz. Uni takrorlab turish kerak ekan. O'qituvchimiz Muattar opa G'oyibnazarova ham bizga ilk marta dars o'tganlarida uyga alifboni takrorlab kelishni vazifa qilib berganlar. O'shanda «Alifboni bilamiz-ku, nimasini takrorlaymiz», deb hayron bo'lganmiz. So'ng, uyga kelib harflarni birma-bir ko'rib chiqar ekanman, ularning ketma-ketligi yaxshigina esimdan chiqqanini bilgandim. Ustozimizni haqiqiy o'zbek tili o'qituvchisi, kasbining fidoiysi, desak bo'ladi. Chunki ular doim bizga adabiy tilni hurmat qilishimizni tayinlab, dars davomida toza o'zbek adabiy tilida gaplashishimizni talab qiladilar. Iшонasizmi, shunday qilib, biz kursdoshlarim bilan so'zlashganimizda chet tilidan o'zlashtirilgan so'zlarni qo'llamaydigan bo'lib qoldik. Demak, o'qituvchi shunchaki bilim emas, o'quvchiga tarbiya ham bera olganida haqiqiy ustoz bo'la oladi. Ana shunday jonkuyar ustozimiz litseyimizdagi «Yosh qalamkashlar» to'garagiga ham rahbarlik qiladilar. To'garak a'zolarining ijodlaridan namunalarni to'plab «Guldasta» she'riy kitobini nashrga tayyorlaganlar. Ulardan o'rganganlarimiz tufayli turli ko'rik-tanlovlarda g'olib bo'lmoqdamiz. Shuning uchun ustozim Muattar opani til bayrami arafasida qutlagim keldi. Zero, bu bayram umrini tilimiz sofligi va rivojiga hissa qo'shib kelayotgan murabbiylarniki, barchamiznikidir.



Umida SHARIPOVA,
O'zMU qoshidagi S.Rahimov akademik litseyi talabasi

DARSGA NEGA KECH QOLASIZ?

Bu savolga aksariyat o'quvchilar «uxlab qolibman», deb javob berishadi. Lekin bu qutqaruvchi bahona, aslida, darsga kechga qolishning turli sabablari bor. O'quvchilarda uchraydigan bu «kasallik» haqida o'zlari nima deyishar ekan? Axir kech qolish birinchi soatdagi darsni tushunmaslikka, mas'uliyatsizlik, tartibsizlik kabi odatlarning shakllanishiga olib keladi. Tasavvur qiling, siz nufuzli oliygohning talabasi va keyinchalik esa bir lavozimning egasi bo'lganingizda ham kech qolib yursangiz yarashadimi? Sizni atrofingizdagilar hurmat qilishadimi? Yo'q, demak, bu «kasallik»ni davolash kerak.

O'zMU qoshidagi S.Rahimov akademik litseyi o'quvchisi Nargiza Murodova bu boradagi fikrlarini biz bilan o'rtoqlashdi:

– Albatta, bu yomon odat. Chunki eshik taqillatib kirganimizda o'qituvchimiz asabiylashadilar. Hammaning xayoli buziladi. Ayniqsa, arzimagan sabablarga ko'ra kech qolish yaxshi emas. Masalan, ba'zilar birinchi soatdagi darsdan uy vazifasini bajarmagani uchun kech qolishadi. Yoki dugonalar bilan yo'lda uchrashib keladiganlar bir-birlarini kutib qolib kechikishlari mumkin.

Yana bir tengdoshingiz Shayxontohur tumanidagi 59-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi Robiya Ismatullayevaning

aytishicha, ertalab televizorda beriladigan seriallar-u multfilmlarni ko'rib, kech qoladiganlar ham bor.


Bu qizlarga o'zingizda ham bu odat bormi, deb savol bersak, «Ba'zida jiddiy sabablarga ko'ra kech qolishimiz mumkin», deb javob berishdi.

Bilasizmi, menimcha, hammasi betartiblikdan kelib chiqadi. Zero, o'z kun tartibiga ega bo'lib, unga rioya qiladigan o'quvchilarimiz darsga o'z vaqtida borsalar kerak. Maktabning ham o'z tartib-qoidalari bo'lib, har bir o'quvchi unga rioya qilishi shart. Qolaversa, inson o'zidagi yomon odatlarni tarbiyalab borib, o'zini-o'zi boshqarishni o'rganishi kerak. Aks holda, ota-bobolarimiz aytganlaridek, uning biri ikki bo'lmaydi, ishi unmaydi.

Demak, eng namunali o'quvchi bo'lishni, o'qish-ishlaringiz hamisha a'lo bo'lishini istasangiz, darslarga shoshiling, sizni esa yangi bilimlar kutmoqda!

Sayyora JO'RAYEVA

KOMBINEZON KIYGAN BOLA



Bir kuni bolakay sayrga chiqdi va qo'shni bolani ko'rib qoldi. Uning kombinezoni bor ekan. Keyin u bolani: «Hey, bola!» deb chaqirdi. Bola qaramadi. Shuning uchun yana unga: Hey, bolapaqir», dedi.

Oxirgi marta chaqirgach: «Nima deysan?» dedi haligi bola.


- Oxiri qaradingmi? Nimaga qaramayotgan eding?
- Chunki sen yomon bolasan.
- Men yomon bolamanmi hali?
- Ha, yomon bolasan.
- Voy, sening kombinezoning yo'q ekan.
- Ha, kombinezonim yo'q. Lekin o'zingning ham aybing bor.
- Ha, aybim bor. Tan olaman.
- Shuncha gap talashdik. Endi tinchiy qolaylik, yarashaylik.
- Mayli, tinchiymiz. Lekin menga do'q qila berma.
- Mayli, do'q qilmayman. Kel, ikkalamiz yana do'st bo'la qolaylik.
- Yo'q, desam nima qilasan?
- Xafa bo'laman.
- Nega xafa bo'lasan?
- Axir biz oldindan do'st bo'lganmiz-ku!
- Ha, to'g'ri. Endi rostdan ham inoqlashaylik.
- Xo'p, sening aytganing bo'la qolsin.
- Endi, bo'lmasam, bizning uyga yur, birga o'ynaymiz.
- Mayli.

Shunday qilib, ikki qo'shni bola goh urishib-tortishib, goh do'stlashib katta bo'la boshlashibdi.

Munira BAHODIR qizi

Internet xabarлари

POMIDOR YEMAGAN BOLALAR



Ispaniyada o'quvchi-yoshlar o'rtasida iste'mol qilinayotgan mahsulotlar bo'yicha test o'tkazildi. Aniqlanishicha, 11 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan ispaniyalik bolalarning 23,93 foizi pomidor, 14,77 foizi apelsin, 15,87 foizi sabzi, 26,58 foizi yong'oq ta'mini tatib ko'rmagan ekanlar. Ushbu mahsulotlarni uy sharoitida iste'mol qilmagan o'quvchilar ularni endilikda maktabda yeyishlari mumkin. O'quvchilar sog'lig'i uchun zarur bo'lgan meva va sabzavotlar maktab oshxonasiga yetkazib berilishi rejalashtirilgan.

KIMNING BO'YI BALANDROQ?

Minskda g'il bolalar va qizaloqlar Belarussiyaning eng bo'ychan bolalari sifatida tan olingan. O'rtacha hisobga ko'ra, minsklik 7 yoshli bolakayning bo'yi tengdoshlariga nisbatan 1,69 santimetr baland ekan. 14 yoshga borib, uning bo'yi belorus o'quvchisining qaraganda 5 santimetrga ko'proq o'sishi mumkin. Bu borada qizlar ham o'g'il bolalardan ortda qolishmayapti.



TANLANGAN IMTIHON




Shotlandiyada maktab bitiruvchilari yil oxirida qaysi fandan imtihon topshirishlarini o'zlari belgilab oladilar. Imtihondan o'ta olmagan o'quvchilar Shotlandiyada juda kam.

Bitiruvchilar maktabda imtihondan o'ta olmasalar, kollej va universitetga qabul qilinmaydilar. Shuning uchun ham shotlandiyalik o'quvchilar bitiruv imtihonlariga qattiq tayyorlanadilar. Hattoki, ular bitiruv kechasini o'tkazishni xayollariga keltirmaydilar. Bitiruvchilar uchun eng asosiysi – imtihondan muvaffaqiyatli o'tib olib, kollej va universitet talabasi bo'lish hisoblanadi.

O'QUV QUROLLARI O'RNIGA KOMPYUTER

Italiyada bir o'quvchining yillik o'quv qurollari uchun 700 AQSH dollari miqdorida mablag' sarflanadi. O'quvchilarga yengillik yaratish maqsadida, Turin shahridagi maktablarga «Olidata» rusumidagi kompyuter amaliyotga taklif qilinyapti. «Olidata» rusumidagi kompyuter barcha o'quv qurollari o'rniga o'quvchilarga topshirilib, amalda sinab ko'rilmoqda. NOTE BOOK bemaolol o'quv qurollari o'rni bosa oladi. Eng asosiysi, NOTE BOOKning narxi 400 AQSH dollari ekanligi barchaga ma'qul kelmoqda.



XORAZMDAN ESGAN
NAVO

Nilufarning she'rlarini o'qib, kuzning bog'larda g'amgin kuy chalib yurgani ko'z oldimda gavdalandi. Daraxtlardan uzilib borayotgan yaproqlarning mungli nolasini sezdim.

Atrofda kuz kezar parishonxotir...
yoki

Nenidir shivirlar shu payt shamollar,
Shumshaygan daraxtlar termular rangin.
Kokilin yozadi munkaygan tollar,
Qushlar chug'urlashib qoladi g'amgin...

kabi satrlar kishini o'yga toldiradi. Nilufarning olislardan yangrayotgan navosi dilga xush kayfiyat baxsh etadi.

AXTAMQULI

KUZ
NAVOLARI

Betnim shivirlar hovlida xazon,
O'zgaga tilamas o'z umrin bekor.
Dil xuddi muallaq titragan to'zon,
Uning hayot yo'li barchaga oshkor.

Atrofda kuz kezar parishonxotir,
Qotgan kurtaklarga boqaman behush.
Aftidan u kimni qilmoqda xotir,
Har safar kuz fasli keladi namhush.

Nenidir shivirlar shu payt shamollar,
Shumshaygan daraxtlar termular rangin.
Kokilin yoyadi munkaygan tollar,
Qushlar chug'urlashib qoladi g'amgin.

O'ychan novdalarda uxlaydi bahor,
Kurtakni avaylab yupatar asta.
Bu go'zal onlarga ishtiyoqim bor,
Biroq, maysalarning yuragi xasta.

Nilufar MADRAHIMOVA,
Xorazm viloyati, Yangibozor
tumanidagi 2-maktabning
9-sinf o'quvchisi

Aziz bolajonlar, xalq dostonlari,
ertak va rivoyatlar o'qishni yoqtir-
rasiz-a?

Ushbu suratda qaysi doston
qahramonlari aks ettirilganini
toping-chi!

HAR OYDA BIR MA'NO

(Hozir amalda bo'lgan taqvimdagi o'n ikki oy tarifi)

Yanvar – Yanus tangrisi sharafiga «yanvarius» deb atalgan. Rimliklar e'tiqodicha, Yanus har bir narsa boshlanishi va oxirining homiysi bo'lgan emish.

Fevral – lotincha «februum» so'zidan olingan bo'lib, narigi dunyo tangrisi Februariy nomiga qo'yilgan. «Februarius» so'zi tozalanish, poklanish ma'nosini anglatadi.

Mart – bu oy dehqonlar va chorvadorlar homiysi Mars sharafiga atalgan, «martius» so'zidan olingan.

Aprel – «Apfere» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'z in'omlarini namoyon qiluvchi degan ma'noni bildiradi.

May – ma'buda Mayya (Mayus) ismidan kelib chiqqan bo'lib, go'zallik, shod-hurramlik oyi hisoblanadi.

Iyun – Yupiterning xotini – ma'buda Yunona sharafiga qo'yilgan. Afsonalarga ko'ra, Yunona ayollar homiysi, er-xotinlar qo'sha qarishi, uvali-juvali bo'lishning tarafdori bo'lgan.

Iyul – Rim davlati arbobi va lashkarboshisi Yuliy Sezir sharafiga shunday atalgan.

Avgust – Rim imperatori Oktavian Avgust sharafiga qo'yilgan.

Sentabr – qadimda rimliklarning 10 oylik taqvimida yettinchi oy bo'lib, lotincha «september» (yetti) so'zidan olingan.

Oktabr – qadim rimliklar taqvimida sakkizinchi oy, lotincha «oktober» (sakkiz) degan ma'noni beradi.

Noyabr – lotincha «november» (to'qqiz) so'zidan olingan bo'lib, qadimgi rimliklar taqvimida to'qqizinchi oyni anglatgan.

Dekabr – lotincha «desembr» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «o'n» degan ma'noni beradi. Qadimgi rimliklar taqvimida bu o'ninchi oy hisoblanadi.



TOPISHMOQ

Juda sevamiz uni,
Xilma-xildir mazmuni.
O'qituvchi emas-ku,
Bilim bera olar u.
U barchaning ulfati,
Bo'lar ba'zan surati.
Qani, o'rtoq, buni top!
Eslagan der: bu...

Quyidagi bo'g'inlardan qatnashtirib, ismlar
hosil qiling.

Kim birinchi bo'lib Alisher ismini topa oladi?

A	NOR	SHER
GUL	LI	MAT

ANIQ HISOB

– Qo'lingdagi
mag'iz qancha?
– Senga bitta,
Menga ancha.

Anvar OBIDJON

IZZATTALAB

– Nega pashmak
bermayсан?
– Yeysan...
«Rahmat», demaysan.



– Opajon, bo'yim
o'sib, vaznim ham
ancha oshibdimi?

Ustozni ranjitmoq – ota-onani
ranjitmoqdek zo'r gunoh.

Onajonim tabiat

Mavsumlar o'z navbati bilan almashinadi, sanalar o'zgaradi, mavzular eskiradi, yangilanadi. Lekin shunday bir mavzu borki, u hecham eskirmaydi, dolzarbligini yo'qotmaydi.

Gap tabiat mavzusi haqida borayotganini darhol fahmlab, fikrimizga qo'shilgandirsiz-a? Ayniqsa, ekologik vaziyat keskinlashgan, zavod va fabrikalar, avtomobillardan chiqayotgan gazlar atmosferani ifloslantirayotgan ayni damda tabiat mavzusi yana-da dolzarblashgan. Yer yuzida haroratning me'yoridan ortiq isib ketayotgani, iqlim o'zgarishi, azon qatlaminin yemirilishi, suv toshqinlari-yu yong'inlar sodir bo'layotgani bejiz emas, axir.

Biz tabiat so'ziga onajonim so'zini qo'shib aytishga odatlanganmiz. Lekin, aslida-chi, uni har doim ham onalarimizdek ardoqlay, e'zozlay olyapmizmi?

Keling, aziz o'quvchilar, bu haqda jiddiyroq o'ylab ko'raylik. Tabiatni asrab-avaylashdek xayrli ishga oz bo'lsa-da, o'z ulushimizni qo'shaylik va amalga oshirayotgan ibratli ishlarimiz haqida «Onajonim tabiat» sahifasiga yozib yuboraylik.

«BIOEKOSAN»

JONKUYARLARI



«Tong otishini hech kuzatganmisiz? Ko'z ilg'amas tog'lar ortidan kattakon qizg'ish gardish misol quyoshning ohista bosh ko'tarishi, daraxt shoxlari orasidan jilvalangan iliq taftining ko'zingizni qamashtirishi huzur bag'ishlaydi kishiga». Namangan shahar Xalq ta'limi bo'limiga qarashli «Bioekosan» markazi a'zolari tabiatga ana shunday ta'rif berishadi. Axrorjon Qambaraliyev rahbarlik qilayotgan mazkur to'garakning asosini jonli burchak tashkil etadi. To'garak a'zolari qo'y, tovuq, o'rdak, g'oz, quyon, tovus, ilon, tipratikan kabi jonivor-u parrandalarni, sayroqi qushlarni mehr bilan parvarish qilishadi. Markaz qoshidagi quyonchilik, gulchilik, ekologiya, yoshlarni turmushga tayyorlash kabi guruhlarda 10-15 nafar yosh tabiatsevarlar shug'ullanib kelishyapti. Oybek Orifjonov, Sanjar Mirzajonov, Kamoliddin Qurbonov kabi o'quvchilar viloyat miqyosida o'tkazilgan tadbirlarda faxrli o'rinlarni egallab kelmoqdalar.

Yaqinda markaz jonkuyarlari hamda o'quvchilar hamkorligida 26-«Mehribonlik uyi» qoshida «Bioekosan» xonasi tashkil qilindi. Bu yerga keltirilgan sayroqi qushlar, nafis gullar, turli xildagi baliqlarni ko'rib, bolajonlarning quvonganini bir ko'rsangiz edi...

Yo'lingiz tushsa, markazimizga bir keling! Bunda rango-rang gullar chiroyidan zavqlanasiz, manzarali daraxtlarning soyasida salqinlaysiz, mazali mevalardan totinasiz. Markaz faoliyatiga xolisona baho berasiz.

Abdulaziz QIRG'IZBOYEV,
Namangan shahri

BARGLAR NEGA SARG'AYADI?

Yurtimizga mevalar bilan limmo-lim to'kin dasturxonini yozib, oltin kuz fasli kirib keldi. Daraxtlarning barglari sarg'ayib, qizg'ish tus olib, asta-sekin to'kila boshladi. Ular xazonrezgilikka tayyorlanishyapti.

Xo'sh, barglar nega sarg'ayadi? Kuz faslida daraxtlarning barglariga oziq moddalari kelishi to'xtaydi. Shuning uchun ular sarg'ayib to'kila boshlaydi. Hech e'tibor berganmisiz, ayrim daraxtlarning barglari qizil rangga kirsas, ba'zilar jigarrang yoki binafsha tus oladi. Barglarning rangi ular tarkibida qanday bo'yovchi modda borligiga, ranglarning tiniqligi esa ob-havoga bog'liq ekan. Agar kuz cho'zilib seryog'in kelsa, suv ko'p bo'lib, yorug'lik yetishmasligidan barglarning rangi xira, ko'rimsiz bo'lib qoladi. Agar kunduz kunlari issiq, kechalari sovuq bo'lsa, barglar ochiq rangda bo'ladi.

Nastarin bilan ligustrumning barglari esa ob-havoga bog'liq bo'lmagan holda yashilligicha to'kiladi. Chunki o'simliklar orasida faqat ularning tarkibida bo'yovchi yashil moddalar bo'ladi.

Akobir NOSIRXO'JAYEV,
Shayxontohur tumanidagi 102-maktabning
8-«G» sinf o'quvchisi



QALDIRG'OCH



Men qaldirg'ochlarni juda yaxshi ko'raman, ularning parvozini uzoq-uzoq tomosha qilgim kelaveradi. Omadni qarangki, bu yil ayvonimiz shiftiga qaldirg'ochlar in

qurishdi. Buvimning aytishlaricha, bu beozor qushlar

fayzli, barokatli xonadonlargagina in qurishar ekan. E'tibor berib kuzatsam, bu tinib-tinchimas qushlar boshqa qushlar kabi daraxt shoxlariga emas, faqat simyog'ochlarga qo'nisharkan. Olimlarning aniqlashlaricha, qaldirg'ochlarning bir kunda qilgan ishlarini 100 foiz deb olsak, shuning 75 foizi harakatda o'tarkan. Buvimdan bu qushlarning yana bir yaxshi fazilatini bilib oldim: qaldirg'ochning yerga tushib ketgan palaponi iniga qaytarib qo'yilsa, onasi uni darhol o'z bag'riga olarkan. Boshqa qushlar esa inson qo'li tekkan bolasini inidan irg'itib tashlarkan. Qaldirg'ochlarning o'z bolasini avaylab-asrashlari ham xuddi insonlarga o'xshar ekan.

Tunov kuni qaldirg'ochning palaponi inidan tushib ketibdi. Uni ukam keltirgan uzun yog'ochning ustiga avaylabgina qo'ydim. Avvaliga bizdan biroz cho'chigan palapon keyin maqsadimizni tushundi chog'i, yog'ochning ustiga o'zi tirishib-tirmashib chiqqa boshladi. Bu paytda ota-ona qaldirg'ochlar boshimiz uzra chirillab charx urishardi.

Palaponi iniga qaytgach, uni bag'irlariga olib, shiringina uyquga ketdilar.

Bu ishimiz bilan ona tabiat himoyasiga biroz bo'lsa-da, hissa qo'shganimizdan ukam ikkimiz behad quvondik.

Shahlo SIDDIQOVA,

O'zMU qoshidagi S.Sirojiddinov nomli akademik litsey talabasi

SUV OSTIGA SAYOHAT

Hayotda nimalar bo'lmaydi, deysiz? Bir kuni tushimda suv ostiga sayohat qilibman. Dengizga sho'ng'ishim bilanoq nazoratchi ilonbaliq yonimga kelib, begona hududga ruxsatnomasiz kirganim uchun jarima solishini aytdi. Yaxshiyamki, yonimda ozroq non bor ekan, unga berib, changalidan bir amallab qutuldim. Qornimni to'ydirib



olgach, «Ekologik muammolarni hal qiluvchi parlament» binosiga bordim. Qabulxonada meni rasmiy kiyim kiyib olgan kotiba – xonbaliq iliq qarshi oldi. Orol muammosiga bag'ishlangan majlisga quruqlik vakili sifatida meni ham taklif qilishdi. Cho'rtkesar akula Orol dengizining qurishiga insonlarning suvdan noto'g'ri foydalanganliklari sabab bo'lganini aytdi. Shunda doimo bosiqlik bilan oqilona fikr yurituvchi sazan baliq muammoning sababini emas, yechimini izlash kerakligini ta'kidladi va barcha, jumladan, men ham o'z fikr-mulohazalarimizni aytdik. Majlis so'nggida Orol dengizi prezidentining 1-o'rinbosari oq kitning taklifiga ko'ra insonlarga «ochiq xat» yozildi. Unda insonlar faqat o'z manfaatlarini o'ylabgina qolmay, suv osti saltanatidagi tili, zaboni yo'q beozor jonivorlar hayotini ham o'ylashlari, obi hayot atalmish suvni kelajak avlodlar uchun ham avaylab-asrashlari lozimligi yozilgandi. Bu xatga bildirilgan munosabatlar 23-dekabrda markaziy dengiz parlamentida bo'ladigan referendumda ko'rib chiqilishi ko'zda tutildi.

Men esa «ochiq xat»ning mazmunini siz aziz tengdoshlarimning e'tiboringizga havola qilyapman. Fikr-mulohazalaringiz, takliflaringizni suv osti saltanatining elektron pochta-siga yozib yuboring: Orol. baliqcha. mail. kit.


Umida MURODOVA

TEZYURAR QUSH

Siz tuyaqush haqida eshitganmisiz? Uzoq Afrika mamlakatlarida yashovchi bu qushning bo'yni uzun va patsiz, oyoqlari esa juda baquvvat bo'ladi. Tanasi chiroyli patlar bilan qoplangan tuyaqushning bo'yi 1,5 metrchga keladi. U lapanglab yursa-da, barcha qushlar orasida eng tezyurari sanaladi.



Maftuna RAHMONEKOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Nafis
san'at litseyi o'quvchisi



2008

Tong yulduzi
20-oktabr

Nazarimda, har bir daraxt orqasida nimadir berkinib turgandek edi...



O'tkir HOSHIMOV,
O'zbekiston xalq yozuvchisi

qoldirmaydigan ohangda.

Uyg'onib, ichkaridan chiqqan akam hammasini tushundi shekilli, kostyumini kiya boshlagan edi, dadam jerkib berdi:

– Sen qayoqqa?
– Birga borib kelamiz.
– Yo'q! – dedi dadam shiddat bilan. – O'zi topganmi, o'zi oborib qo'yadi!

Kuz, salqin tushib qolgan... G'ira-shira ko'roydin... Qo'limda muzdek temir qoziq bilan yo'lga tushdim. Jiydazor-ku uzoq emas. Ammo unga yetguncha Darxon ariq ustidagi ko'hna ko'prikdan o'tish kerak. Odam yolg'iz qolsa, kunduzi ham qo'rqadigan qing'ir-

QOZIQ

(Hikoya)

Qishloq bolasining vazifasi – mol boqish. Bizning ham sigirimiz bor edi. Tengqur bolalar bilan jiydazorda mol boqardik. Adashmasam, o'shanda beshinchi sinfda o'qir edim. Jiydazorda o't ko'p. Bekinmachoq o'ynashga ham qulay joy. Faqat kun botar-botmas har kim o'z molini yetaklab uyiga jo'nar, jiydazorda ajina bor, yolg'iz yursang og'zingni qiyshaytirib ketadi, degan vahima gaplar yurardi. Mening sigirim yuvosh bo'lsa ham bir aybi bor edi. Nuqul qozig'ini sug'urib «daydib ketardi». Bilasiz, qoziq yog'ochdan yasaladi. Har kuni qoqavergandan keyin boshi yedirilib, sinadi. Qarabsizki, boshqa qoziq yasash kerak...

Shunday kunlardan birida temir qoziq topib oldim. Boshida halqasi ham, hatto uzilib qolgan bir-ikki qarich arqoni ham bor. O'rtoqlarimdan: «Kimning qozig'i?» deb so'rasam, egasi chiqmadi. Sevinib ketdim. Sigirimni yangi qoziqqa bog'lab qo'ydim: endiyam sug'urib ko'rsin-chi!

O'sha kuni emas-ku, ertasiga g'alati ish bo'ldi. Kechasi endi uxlagan ekanman, oyim dadang chaqiryaptilar, turarkansan, deb qoldilar. Hayron bo'lib ayvonga chiqsam, dadam qovog'ini uyib o'tiribdi. Qo'lida o'sha temir qoziq.

– Qayoqdan olding buni? – dedi tahdid bilan. Otamdan qattiq hayiqardik. Qo'rqib ketdim.

- Topib oldim, – dedim rostini aytib.
- Qayerdan?
- Jiydazordan.
- Qaysi jiydaning tagidan?
- Qiyshiq jiydaning.
- Jiydaning to'g'risi bo'lmaydi, qaysi birining tagidan?

Ko'rsang, taniysanmi o'sha jiydani?

- Taniyman, – dedim qo'rqa-pusa.

Dadam qo'limga qoziqni tutqazdi.

–Xuddi o'sha jiydaning tagiga tashlab kelasan!

Yuragim orqaga tortib ketdi. Jiydazorda «ajina» borligi esimga tushib, talmovsirab qoldim.

Ayvon burchagida turgan oyim yalindi:

–Tashlab keladi, dadasi, tong otsin, albatta tashlab keladi.

- Sen aralashma! – dedi dadam e'tirozga o'rin

qiyshiq jiyda chakalakzori orasiga kirish kerak. Aksiga olib, yaramas qoziqni Qonqus anhuri bo'yidagi daraxt tagidan topganman...

Salqin havodanmi, qo'rquvdanmi, oyog'im qaltirab ko'prikdan o'tdim. G'ira-shira ko'roydinda sirli sukunat cho'kkan jiydazorga kirdim. Nazarimda, har bir daraxt orqasida nimadir berkinib turgandek edi. Qayerdadir boyqush «huv-huv»ladi... Rostini aytsam, Qonqus bo'yigacha bormadim. Qo'limdagi qoziqni kuchim boricha uloqtirib, orqaga qarab yugurdim...

Oyim bilan akam ko'chaga chiqib kutib turishgan ekan... Labimga uchuq toshib, bir-ikki kun achishib yurganini hisobga olmaganda, hech nima bo'lmadi... Faqat oradan bir oycha o'tgach, dadam shu masalaga qaytib, bir gap aytdi:

– Sen topib olgan qoziqqa bog'langan sigir arqonini uzib, adashib ketgan bo'lsa yoki biron o'g'irlagan bo'lsa-da, qoziq sening uyingdan chiqsa, egasi tanib, seni o'g'ri gumon qilsa, nima bo'ladi?

Dadamning savoliga javob yo'q edi...

... Oradan ko'p yillar o'tgach, yana bir voqea bo'ldi. «Sochi»ga dam olishga bordim. Dengiz sovib, «o'lim mavsum» boshlangani uchunmi, dam oluvchilar siyrak, xonalar bemalol edi. Menga alohida xona berishdi. Kirib yechindim. Yuvinish uchun vannaga kirib ketayotsam, xizmatchi ayol kirib, ko'rpa-to'shaklarni almashtira boshladi. So'ng, divan boshidagi stolcha tortmasini ochgan edi, bir dasta pul chiqdi. Katta pul!...

– Kechirasiz, – dedi ayol xijolat chekib tortmani yoparkan. – Men bexosdan...

Xayrlashib chiqib ketayotgan edi, to'xtatdim.

– Bu pul meniki emas.

– Meni sinamoqchimisiz? – dedi ayol ranjib. – Xonaning egasi ketganiga uch kun bo'ldi. Pulini unutib qoldirgan bo'lsa, allaqachon dovlagan bo'lardi...

– Meniki emas, – dedim takrorlab. – Olib keting! Shu kecha otam tushimga kirdi. Kulib turganmish...



DELFIN

Men yoqimtoy delfinman,
Odamlarni sevarman.
Hoy, bolalar, bilingiz,
Do'st bo'lamiz, kelingiz.

Okeanda o'ynaymiz,
Mazza qilib yayraymiz.
Cho'milamiz dengizda,
Ko'p ishlar bo'lar bizda.

Suv ostini bilaman,
Ekskursavod bo'laman.
Cho'chimang siz jussamdan,
Xursand bo'lasiz mendan.

BALIQ

Menman osyotir baliq,
Sizga tilayman sog'liq.
Bordir dumim, suzg'ichim,
Yog'ga to'ladir ichim.

Laqqa, sazan do'stimdir,
Tangachalar po'stindir.
Sardina, farishta, to'ti,
Ozig'imizdir suv o'ti.

Hovuz, okean, dengiz,
Uyimizdir, bil, Nargiz.
Suydan qo'rqmay kelingiz,
Qani, tutib ko'ringiz.

Qochaman, tutolmaysiz,
Suzsangiz, yetolmaysiz.

TOVUS

Men tovusman, tovusman,
Eng chiroyli o'zimman.
Ko'ring, havas qilingiz,
Buncha go'zal, deyingiz.

Hindiston mening uyim,
O'rtachadir ko'r bo'yim.
Shiri Lanka oroli,
Vatanim jon oromi.


Dumumni yoysam agar,
Hang-mang bo'lasan, Anvar.
Qushlarning eng go'zali
O'zimman, qara, Vali.

Oygul UBAYDULLA qizi

KROSSVORD TUZING

Quyidagi so'zlarni shakl kataklariga yozish orqali
krossvord tuzing. Bunda shaklga yozilgan so'zlar asos
bo'lib, kalit hisoblanadi.

AYVON	DEVON	OVQAT	ULAMA
AORTA	DO'KON	OKSID	CHANG'I
ARAVA	YO'LKA	OQILA	O'RDAK
ARAF	IDROK	PALLA	O'RKACH
ASTAR	KOVUL	PARTA	G'AZAL
ATALA	KULGI	ROBOT	AROSAT
ATAMA	LAVHA	SO'ROV	BULOQI
ASHULA	LOBAR	TARIQ	DERAZA
AXROR	MISOL	TEATR	KARVON



Foziljon ORIPOV tuzdi

BURCHAK
HUJUMIDAGI
OMAD

Yusufbek Markaziy «Paxtakor» futbol akademiyasining himoyachisi. U 10 yoshda. To'rt yildirki, bolalar futbolida tengdoshlari orasida o'z mahorati bilan taniqli. O'tgan hafta «Bunyodkor»dagi tengdoshlari bilan maydonda to'p surgan Yusufbek Shoimovning jamoasi durang natijani qo'lga kiritdilar. Hayajonli bu o'yinda dastlab «Bunyodkor»chilar

hisobni ochgan edilar. Ammo ularning xursandchiligi uzoqqa cho'zilmadi. O'yinning ikkinchi bellashuvida shiddatli to'p surayotgan jamoaga ham omad kulib boqdi. Tezkor hujumchi Sirojiddin Rasulovning burchakdan oshirilgan to'piga o'z vaqtida javob qaytargan Yusufbek boshi bilan darvozaga gol kiritdi. Natija 1:1 hisob bilan yakunlandi. «Paxtakor»chilarning kichik darvozaboni Sardor Sodiqovning o'rinli harakati o'yinning oxirgi pallasidagi xavfli vaziyatni ham bartaraf etdi.

Bo'lajak «Paxtakor»chilar hozircha shahar chempionatining uchinchi pog'onasidan joy olib turibdilar.

Sizning jamoangiz-chi?

ROBERT GAY XAFA BO'LDI

Poytaxtimiz olti kun futbol bo'yicha Osiyo chempionatiga mezbonlik qildi. Shuningdek, bu o'yin jahon chempionatiga ham saralash bosqichini o'tadi. Qit'amizning o'n oltita mamlakati terma jamoasi o'smirlari jahon chempionatida qatnashish huquqini beruvchi to'rt yo'llanma uchun murosasiz kurash olib bordilar. Avvalgi



o'yinlarda maydonda peshqadamlik qilayotgan o'smirlarimizni koreyaliklar mag'lubiyatga uchratishdi. Natijada terma jamoamizga, ya'ni Robert Gay shogirdlariga omad kulib boqmad. Janubiy koreyaliklar tuhfa etgan mag'lubiyat yosh futbolchilarimizni medaldan ham, jahon chempionati yo'llanmasidan ham benasib etdi... Afsus, Robert Gay bekorga xafa bo'lmabdi-da!

CHEMPIONAT CHEMPIONI



O'tgan hafta poytaxtimizdagi muhtasham «Jar» sport sog'lomlashtirish majmuasida yosh sambochilar chempionati bo'lib o'tdi. Unda yoshlar, o'smirlar ishtirok etishdi. To'rt kunlik bahslarda dunyoning 35 mamlakatidan kelgan yosh polvonlar birinchilik uchun bellashdilar.

Kuchli sportchilar orasida yurtdoshimiz, tengdoshingiz Ilg'or Asadov ham bo'sh kelmadi. U (100 kg.) vaznda muvaffaqiyatli qatnashib, sambo bo'yicha jahon chempioni degan sharaflı nomga sazovor bo'ldi. Bu chempionat yana ikki nafar vakilimizga kumush, yetti nafar sambochimizga esa bronza medalini taqdim etdi. Barakalla, umidli polvonlar!

AOYUN – OLIMPIADA DEGANI

«Pekin – 2008» musobaqasining tantanali ochilish marosimi 2008-yil 8-avgustning sakkizinchi daqiqasida tantanali ravishda ochilgan edi. Shunday tarixiy lahzalarda Pekin shahrida dunyoga kelgan uch chaqaloqqa Aoyun deb ism qo'yildi. Aoyunlar o'z ismlari bilan kelajakda faxrlanish va g'ururlanishga to'la haqlilar. Axir ular tarixiy qahramonlar qatoriga qo'shilishdi-da!

BOLALAR
QUVONDILAR

Sovuq kunlar boshlandi. Markaziy «Paxtakor» futbol akademiyasining tarbiyalanuvchilari esa: «Yana sovuq zalda mashg'ulotmi?» deya xavotirlanayotgan edilar. Kecha mashg'ulotdan so'ng murabbiy: «Yangi zalga boramiz», degan taklifni aytdi. Bolalar avvaliga ishonmadilar. Murabbiyga ergashib zalga kelganlarida, hayratdan ko'zlari chaqnab ketdi. Ne ko'z bilan ko'rishsinki, «Paxtakor» metrosi yonida joylashgan avvalgi «Yoshlik» sport zali tanib bo'lmaz darajada ta'mirdan chiqibdi. Hozir bu yerda bolalar sportning basketbol, gimnastika va futbol turlarida mashg'ulotlarni boshlab yubordilar. Bunday qulayliklardan bo'lajak sportchilar juda quvondilar.

«SUV PARISI»GA
TAYYORGARLIK

Shahrimizning Sobir Rahimov tumani, Sebzor dahasida «Musaffo buloq» suv havzasi bor. Bu sport maskani ko'plab chempionlarni kamolga yetkazgan. Shuningdek, ushbu tumanda maxsus olimpiya bolalar va o'smirlar sport maktabi ham faoliyat ko'rsatadi. Shu kunlarda maktabning sinxronchi sportchi qizlari murabbiy Luiza Hikmatova bilan xalqaro turnirga tayyorgarlik ko'rmoqdalar. Turnir noyabr oyida shahrimizda bo'lib o'tadi. Tengdoshlaringizga omad tilaymiz.

Ma'mura MADRAHIMOVA



BUGUNNING

«YANGI AVLOD»LARI




Aziz bolajonlar! «Yangi avlod – 2007» bolalar ijodiyoti festivali g'oliblari bilan tanishtirishda davom etamiz. Tanishing: Maftuna Xudoynazarova. U 1994-yil 12-mayda Sirdaryo viloyati, Yangiyer shahrida tug'ilgan. Maftuna bolalar musiqa maktabining 5-sinf o'quvchisi. U «Yosh malika» ko'rik-tanlovi g'olibi, shuningdek, o'zi tahsil olayotgan maktabning iqtidorli o'quvchisidir. 2007-yil Maftuna uchun omadli va quvonchlarga boy yil bo'lib, u «Yangi avlod – 2007» bolalar ijodiyoti festivali g'olibi bo'ldi. Festivalda «B» guruh estarada yo'nalashida juda ko'p yoshlar o'z iste'dodlarini namoyon etishdi. Maftunaning shirali (yoqimli) ovozi eshitgan tanlov tashkilotchilari unga «Istiqlol» san'at saroyida qo'shiq ijro etish imkonini berishdi. U o'ziga bildirilgan ishonchni oqladi va tomoshabinlar e'tiboriga tushdi.

Tengdoshingiz Savr (Buzoq) burji ostida tug'ilgan. Kelajakda o'zi tanlagan kasbning ustasi bo'lish uchun doim izlanishda. Musiqa, adabiyot fanlarini sevib o'qiydi. Bo'sh vaqtda tarixiy kinolar ko'rishni va musiqa tinglashni yoqtiradi.

Biz ham Maftunaga ijodiy muvaffaqiyatlar tilab qolamiz.

Nazokatxon TOJIBOYEVA




Dunyodagi mashhur Garri Potter haqida yettita kitobni jahon bolalariga tortiq etgan ingliz adibasi Joan Rouling xonim yer yuzidagi eng boy yozuvchi hisoblanadi. Yozuvchining umumiy mablag'i 4,5 mlrd. dollarga teng. Uning so'nggi «Garri Potter va o'lim tuhfalari» qissasi 44

mln. nusxada tarqaldi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu kitobning 15 mln. nusxasi kitobxonlar tomonidan sotuvga chiqqan birinchi kundayoq xarid qilingan.

Dubay shahrida eng baland uy – minora qurilmoqchi. Yangi inshoot 500 metrdan ham baland bo'ladi. Qurilish ishlari o'n yilda bajariladi.

Mazkur minora ikki qavatdan iborat bo'lib, u yerda 55 mingdan ortiq kishiga mo'ljallangan xonadonlar va 45 ming xodim faoliyat ko'rsatadigan ish joylari mavjud bo'ladi.



Shifokor maslahati

TOVONINGIZ KO'P
YORILADIMI?

Tovonning yorilishi holati ko'pincha yalangoyoq yurganlarda, dala ishlari bilan muntazam shug'ullanganlarda paydo bo'ladi.

Tovon yorilishi davolanmasa, unga mikroblar tushib, o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi va yaraga aylanadi. Tovonning yorilgan chuqurchalarida yara kattalashadi va teri osti yog' mushak to'qimalariga o'tishi mumkin.

Tovon yorilishining paydo bo'lish sabablarini faqat mutaxassis shifokor aniqlaydi. Agar yorilgan joylar qizarib, yara paydo bo'lsa, unga ishlov berib, paypoq kiyib yuring.

Shifokorning tavsiyasi bo'yicha bir kurs antibiotiklar oling. Tovondagi yoriqlar kechqurun yoki o'qishdan kelgandan keyin sovunli suvda 10-15 daqiqa ushlab turilsa, tovon terisi yumshaydi va toza bo'ladi. So'ng, yumshatuvchi moylardan surtib qo'yish tavsiya etiladi.

Uy sharoitida tovonga asal surib, ustiga sellofan qo'yib bog'lab yotish foyda beradi.

Tohir IBROHIMOV,
oliy toxfali shifokor,
tibbiyot fanlari doktori

Fotografiya
tanlovi ga

Quchog'imga sig'magan dunyo...

«Suv – mo'jiza» tanloviga

SUV TASHIGAN BOLALAR

«Suv yoningdagi daryodan oqib turgan bo'lsa ham isrof qilma», degan hadisni o'qiganmisiz? Menga buviyonimlar shu kabi ko'plab rivoyatlar, hadislarini aytib berganlar. Shuning uchun men suvni isrof qilmaslikka harakat qilaman. Hozirda yer yuzida toza suv miqdori kamayib bormoqda. Chekka hududlarda toza suvni biz kabi bolalar uzoqdan tashib kelishadi. Suv tanqisligini ana shunday tasavvur qilib ko'ring. Shunda siz hech qachon uni ifloslantirmay va isrof qilmay yashaysiz.

Musharraf MUHAMMADIYEVA,
Buxoro viloyati, Buxoro shahridagi 34-maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi



Savollar:

1. Saboq.
2. Do'st.
3. Gazlama.
4. Shartnoma.
5. Yomon baho.
6. Duradgor asbobi.
7. Bol.

D ₁	O ₂	M ₃	B ₄	I ₅	R ₆	A ₇

Dilnoza EGAMBERDIYEVA

ODINA QIZ, OY QIZIM

Qizalog'im, quvonchim,
Qutlug' bo'lsin yetti yoshing!
Odina qiz, Oy qizim,
Porlasin baxt quyoshing!

Ushbu kun muhayyodir,
Qizim, neni xohlasang,
Sen uchun xizmatga shay
Opang, ayang va dadang!



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jam'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin SHOYODGOROV
Navbatchi:
Sayyora JO'RAYEVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manziliimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198,
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10

Rassom:
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 21084
Buyurtma N: J 6174